

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

ALISHER NAVOIY NOMIDAGI  
TOSHKENT DAVLAT O'ZBEK TILI VA ABAHIYOTI  
UNIVERSITETI



Ro'yxatga olindi: №

2023-yil 22-08

MATN TAHRIRI AMALIYOTI

O'QUV DASTURI

Bilim sohasi: 200 000 – San'at va gumanitar fanlar  
Ta'lim sohasi: 230 000 – Tillar  
Ta'lim yo'nalishi: 60230700 – Amaliy filologiya

Toshkent – 2023

Fan/modul kodi	Fan/modul turi	Ta'lim tili	Ishlab chiqilgan o'quv yili	
MT 1205	Majburiy	o'zbek	2023/2024	
Semestr	Har bir semestrdagi fan/modulning nomi	Harflalik dars soatlari	Auditoriya mashg'urati (soat)	Mustaqil ta'lim (soat)
			ECTS - Kreditlar	Jami yuklama (soat)
			5	150
2	Matn tahriri	4	60	90
	Jami:	4	60	90

2.	<p><b>I. Fanning mazmuni</b></p> <p>Fanning maqsadi matni tahrir qilish, qayta yaratish qonuniyatlari, matnlarni tahrir qilishning o'ziga xos usul va xususiyatlari haqidagi bilimlarni talabalarda shakllantirish, matni tahrir qilib, qayta ishlab metodikasi va usullari bilan tanishtirish; shuningdek, talabalarni shu sohada mantiqiy fikrlashga, ilmiy xulosa chiqarishga undash, ularda matn tahririning nazariy va amaliy muammolarini hal etish, har qanday matni grammatik, mantiqiy, uslubiy jihatdan tahrir qilish ko'nikmalarini shakllantirishdan iborat.</p> <p>Fanning vazifalari: matni noshirlik, matbuot, radio va televideniya foydalanish uchun tayyorlash jarayonida tahrir ishi usullarini o'rganish; muharrirlik ishining ijtimoiy mazmunini va adabiy tahrir hamda materiyalning adabiy saviyasini takomillashtirish filolog kasbining ajralmas qismi ekanligini yetkazish; muharrirlik ishi g'oyaviy, ilmiy va adabiy prinsiplarning birligi sifatida namoyon bo'lishini, turli ommaviy muloqot vositalari – jurnal (gazeta), radio, nashriyotda tahrirning o'ziga xos tomonlari mavjudligini o'rganish.</p> <p><b>II. Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari)</b></p> <p><b>III. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:</b></p> <p><b>1-mavzu. Kiritish. Matn tahriri ilohunoslikning amaliy sohasi sifatida</b></p> <p>Matn tushunchasi va uning tavsifi, Matn tahriri faoliyat turi sifatida, Matn tahririning mantiqiy asoslari, Tahrir filologik va kitobshunoslik fani sifatida, Tahrir ilmining yozuv va kitobat bilan bog'liqligi, Tahrir qilish metodikasi va boshqa ijtimoiy fanlar: adabiyotshunoslik, lingvistika, matnshunoslik, mantiq, psixologiya, asberot texnologiyalari.</p> <p><b>2-mavzu. Uslub va matn tahriri masalasi</b></p> <p>Matni til va uslubga ko'ra tahlil qilish, Muallif uslub, So'zlardan ijodiy foydalanish, Adabiy til me'yori va so'z qo'llash ma'uliyati, Yozma nutq</p>
----	--

<p>tablari.</p> <p><b>3-mavzu. Matn tahlili va tahriri</b></p> <p>Muallif matni ustida ishlash. Matnda yaxlitlik. Matn qismlarining uyg'unligi. Matn bayoni usullari va turlari. Matni tuzatish jarayoni. Matni o'qish turlari. Matni tuzatish usullari. Muallif matni ustida ishlash – muharrirlik faoliyatining asosiy bosqichi. Matnda yaxlitlik. Matn qismlarining uyg'unligi. Yozma nutq talablari. Matnning mantiqiy tahlili – tahrir qoidasi. Matnning axborotliigi – muhim xislat.</p> <p><b>4-mavzu. Matn, muallif va muharrir munosabati</b></p> <p>Nashr jarayoni va muharrir. Muharrir va muallif munosabati. Muharrirlik mas'uliyati. Matn tahriri va dialektizmlar. Matni nashrga tayyorlash madaniyati. Muallif bilan ishlash. Muharrirlik mas'uliyati. Badiiy matn ustida ishlash. Noshirlik odobi. Nashr jarayoni va muharrir. Muharrir va muallif munosabati. Muharrir – asarning birinchi o'quvchisi. Muharrir - qo'lyozmani baholovchi.</p> <p><b>5-mavzu. Matn tahriri va korrektura belgilari</b></p> <p>Korrektura va tahrir. Muharrir tahrirning musahhib ishidan farqlari. Korrektura belgilari. Imlo madaniyati. Ruknlar, lidlar va ularning vazifalari. Sarlavha va unga qo'yiladigan asosiy talablar.</p> <p><b>6-mavzu. Badiiy matnlar tahriri amaliyoti</b></p> <p>Badiiy matn tahririning o'ziga xosligi. Qo'lyozmani baholashda muharrir mas'uliyati. Badiiy asarda til va uslub, Adabiy asar tuzilishi. Kompozitsion usullar tahlili. Badiiy-publististik matn tuzilishining tahlili.</p> <p><b>7-mavzu. Ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy matnlar tahriri</b></p> <p>Matnlarning kompozitsion-nutqiy kategoriya sifatidagi turlari. Ijtimoiy-siyosiy matnlarni bayon qilish usullari. Iqtisodiy yo'nalishdagi matnlarni bayon qilish usullari. Muharrirning muallif rejasi ustida ishlashi. Matndagi alohida fragmentlar tuzilishini tahlil qilish va baholash.</p> <p><b>8-mavzu. Publististik matnlar tahlili va tahriri</b></p> <p>Publististik matn. Gazeta tilining asosiy xususiyatlari. Matbuot matnlari tahrir qilish. Radio va televideniye matnlari tahlili va tahriri. Radioeshittirish va teleko'rsatuv ssenariysi matni. Ularning matbuot matnidan farqi.</p> <p><b>9-mavzu. Reklama matni, ijtimoiy tarmoq matnlari tahlili va tahriri</b></p> <p>Reklama matnlari qo'yiladigan talablar. Reklama matnida sinonimlar va qaytarqlar. Reklama matni yozish va reklama strategiyasi. Reklama matnlari atamalar. Reklama matnlarning umumiy nuqsunlari. Internet jurnalistikasi matnlari tahlili va tahriri. Matnda ixchamlikka erishish. Lid yozish mahorati. Havolalardan foydalanish.</p>
--



**10-mavzu. Kitob apparatining tahlili va tahriri. Sarlavha, rukn va idlar**

Kitob apparati. Annotatsiya va so'zboshi tahlili. Kirish va so'ngso'z tahlili. Ko'rsatkichlar tahriri. Sarlavhaga qo'yiladigan asosiy talablar. Sarlavhalarning matni mavzusi yo'nalishiga muvofiq kelishi. Sarlavha taulashda bilim zaxirasining o'ri. Ruknlar, ularning vazifalari. Ruknlarning nomlanishi, ularning takrorlanib turishi. Bosh rukn ostida mavzuda ruknlarning berilishi. Ruknning taqdim etilayotgan material bilan muvofiq kelishi. Rukn tanlashdagi qiyinchiliklar. Maqola yoki asarning boshlanishida keltiriladigan lidlarning ular mazmunini ifodalashdagi ahamiyati. Asar matnini muhtasar bayon qiluvchi lidlar. Matnga yo'naltiruvchi lidlar.

**III. Amaliy mashg'ulotlar bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar**

*Amaliy mashg'ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:*

1. Amaliy mashg'ulotlar mohiyatini tushuntirish, savol-javoblar. Til va tahrir.
2. Tahrirda sinonim so'zlarni qo'llash, sinonimlar, antonimlar, omonimlar topish.
3. Qaytariq so'zlar, takrorlardan qochish yo'llari.
4. Korrektura va tahrir (amaliy tahrir).
5. Matnni nashrga tayyorlash.
6. Ijtimoiy-siyosiy materiallarni tahrir qilish.
7. Iqtisodiy, adabiy-publitistik matnlarni tahrir qilish.
8. Talabalar yozgan matnlarni o'zlariga tahrir qildirish.
9. Talabalarga matnlarni o'zaro tahrir qildirish.
10. Qonunchilik hujjatlarini tiling o'ziga xos xususiyatlari.
11. Tahrir qilingan materialga taqriz yozish.
12. Jurnal tahriri.
13. Kitob tahriri.
14. Annotatsiyalar tahriri.
15. Reklama tili tahriri.
16. Tarjima tili tahrir qilish.
17. She'r tahriri.
18. Ilmiy matnlar tahririning mas'uliyati.
19. Talabalarning badiiy asarlari va esselari tahriri.
20. TV matnlari tahriri.
21. Radio matnlari tahriri.
22. Internet jurnalistikasi matnlari tahriri.
23. Ijtimoiy tarmoqdagi, mobil telefondagi matnlar, emojilar, SMSlar tahriri.
24. Gazetada chop etilgan materiallarni tahrir qilish.

25. Ko'chadagi peshlavhalar, shiorlar tahriri.

26. Ish yuritish hujjatlarini matni tahriri.

27. Subbat va intervyu tahriri.

28. Matn yozdrib, auditoriyaning o'zida tahrir qilish.

29. Talabalarning boshqa fanlardan yozgan konspektlari tahriri.

30. Fabrik matnlari tahriri.

**IV. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar**

*Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan topshiriqlar:*

1. Tahrirda sinonim so'zlarni qo'llash, sinonimlar, antonimlar, omonimlar topish (universitet gazetasi misolida).
2. Qaytariq so'zlar, takrorlardan qochish yo'llari (viloyat TV ko'rsatuvlaridan yozib olingan matnlar misolida)
3. Mahalliy gazetalarni qayta korrekturadan o'tkazib, imlo xatolarini tahlil qilish.
4. Mahalliy saytlar materiallarini qayta korrekturadan o'tkazib, imlo xatolarini tahlil qilish.
5. Ijtimoiy tarmoqda qoldirilgan postlar matnini qayta korrekturadan o'tkazib, imlo xatolarini tahlil qilish.
6. "Oltin davrim" mavzusida matn yozish. Matnni kursdosh hamkor bilan almashgan holda nashrga tayyorlash.
7. "Muharrir kim?" mavzusida matn yozish. Matnni kursdosh hamkor bilan almashgan holda nashrga tayyorlash.
8. "Mening sevimli asarim" mavzusida matn yozish. Matnni kursdosh hamkor bilan almashgan holda nashrga tayyorlash.
9. Ijtimoiy tarmoqlardagi ijtimoiy-siyosiy xabarlarini tahrir qilish.
10. Mahalliy radiokanallardagi ijtimoiy-siyosiy xabarlarini yozib olib, tahrir qilish.
11. Mahalliy telekanallardagi ijtimoiy-siyosiy xabarlarini yozib olib, tahrir qilish.
12. Ijtimoiy tarmoqlardagi iqtisodiy, adabiy-publitistik matnlarni tahrir qilish.
13. Mahalliy nahlardagi iqtisodiy, adabiy-publitistik matnlarni tahrir qilish.
14. Mahalliy radiokanallardagi iqtisodiy, adabiy-publitistik matnlarni tahrir qilish.
15. Talabalar yozgan matnlarni o'zlariga tahrir qildirish (maktab davrida yozilgan insho va bayonlar misolida).
16. Talabalar yozgan matnlarni o'zlariga tahrir qildirish (ijtimoiy tarmoqdagi postlar misolida).
17. Talabalarga matnlarni o'zaro tahrir qildirish (maktab davrida yozilgan



<p>insho va bayonlar misolida).</p> <ol style="list-style-type: none"> <li>18. Talabalar matnlarini o'zaro tahrir qildirish (ijtimoiy tarmoqdagi postlar misolida).</li> <li>19. "Oltin voha" radiokanalidan yozib olingan matnlar tahriri.</li> <li>20. "O'riyat-dono FM" radiokanalidan yozib olingan matnlar tahriri.</li> <li>21. "Sohibqiron yulduzi" jurnali matnlar tahriri.</li> <li>22. "Ko'hinur" jurnali matnlar tahriri.</li> <li>23. "Gulxan" jurnali matnlar tahriri.</li> <li>24. Kitob tahriri (nashriyotlarda chop etilgan ayrim saviyasi sayoz kitobchalar misolida).</li> <li>25. Annotatsiya tahriri (nashriyotlarda chop etilgan ayrim saviyasi sayoz kitobchalar misolida).</li> <li>26. Mahalliy gazetalardagi reklama matnlar tahriri.</li> <li>27. Mahalliy telekanaldagi reklama matnlar tahriri.</li> <li>28. Mahalliy radiokanalidagi reklama matnlar tahriri.</li> <li>29. Tarjima tilini tahrir qilish ("Jahon xalq ertaklari" misolida).</li> <li>30. She'r tahriri (D.Quronovning Abad Qayum she'rlari haqidagi "So'zda mantiq bo'lsin" maqolasi asosida).</li> <li>31. Ilmiy matnlar tahriri (ilmiy jurnalida yoki talabalar mustaqil ishlarida uchragan g'alizliklar misolida).</li> <li>32. Talabalarining badiiy asarlari va esselari tahriri.</li> <li>33. TV matnlar tahriri (mahalliy telekanallar misolida).</li> <li>34. "Daryo.uz", "Kun.uz" singari internet saytlari materiallari tahriri.</li> <li>35. "Yangi O'zbekiston", "Ma'rifat" gazetalarda sarlavhalar tahriri.</li> <li>36. Ijtimoiy tarmoqdagi, mobil telefondagi matnlar, emoji'lar, SMSlar tahriri.</li> <li>37. Shahar ko'chalaridagi peshlavhalar, shiorlar tahriri</li> <li>38. Ish yuritish hujjatlar matnlar tahriri.</li> <li>39. "Darakchi" gazetasida suhbat va intervyu tahriri.</li> <li>40. "Daryo.uz" saytida suhbat va intervyu tahriri.</li> <li>41. Futbol reportaji matnlar tahriri.</li> <li>42. Radiodagi va SMSlardagi tabrik matnlar tahriri.</li> </ol>	<p>3.</p> <p>V. Ta'lim natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar)</p> <p>Fanni o'zlashtirish natijasida talaba:</p> <p>"Matn tahriri" fani bo'yicha talaba muharrir tahilining boshqa (ilmiy, adabiyotshunoslik, lingvistik va boshqalar) mustaqil tahlil turlaridan farqli, asar ustida ishlashda tahlil va sintezlovchi usullar, rasmiy, ilmiy, publisistik, adabiy matnlar tahriri, ularning o'xshash va farqli tomonlari, she'r tahriri, tahrir qilishning psixologik asoslari, muallif shaxsi va yaratgan asari tahririda, umuman, matni tayyorlashda obyektivlik, matbuot tili,</p>
---	--

<p>mustaqillik davri jurnalistikasidagi imkoniyatlar, har bir yo'nalishdagi matn tahririda o'sha sohaga oid bilimlarning zarurligi, muharrir tahilining asosiy komponentlari, muharrir tahririning musahhib ishidan farqlari, nashrga tayyorlash madaniyati muharrir madaniyatini namoyon qiluvchi muhim omil ekanligi, matn ustida ishlashda, muallifni keyingi maqolani mustaqil tayyorlay olishga o'rgatish, matnlarning kompozitsion-nutqiy kategoriya sifatidagi turlari, muharrirning muallif rejasi ustida ishlashi, sarlavhalarga qo'yiladigan talablar, ruknlar, ularning vazifalari, sarlavhaga qo'yiladigan asosiy talablar haqida bilimga,</p> <p>Matn ustida ishlash, muallif bilan ishlash, muallifni keyingi maqolani mustaqil tayyorlay olishga o'rgatish; ilmiy, adabiy-publisistik, ijtimoiy-siyosiy va boshqa turdagi matnlar tahlil va tahrir qila olish, matn turlarini farqlash, matnning uslubiga xosligini ajratish, matni qayta ishlash, matni adabiy til me'yorlariga muvofiq tahrir qila olish, matni nashrga tayyorlash kabi ko'nikmaga,</p> <p>Matn tahriri va uning amaliy fan sifatidagi maqsad va vazifalari, matn tahrir qilishning usul va yondashuvlari, matni nashrga tayyorlash, tahrir jarayonida muallif va muharrir munosabati, matni bayon qilish usullari, matn tahrir qilish asoslari, matn tahlili va tahririni amalga oshirish usul va yondashuvlarini to'g'ri tushunib qo'llay olish kabi kasbiy kompetensiyalarga ega bo'ladi.</p>	<p>4.</p> <p>VI. Ta'lim texnologiyalari va metodlari:</p> <ul style="list-style-type: none"> <li>• amaliy ishlarni bajarish va xulosalash;</li> <li>• interfaol keys-studilar;</li> <li>• blis-so'rov;</li> <li>• guruhlarda ishlash;</li> <li>• taqdimotlarni qilish;</li> <li>• jamoa bo'lib ishlash va himoya qilish uchun loyihalalar.</li> </ul>
<p>5.</p> <p>VII. Talabalarining kreditlarini olish tartibi</p> <p>O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 31-dekabrda 824-sonli qarori bilan tasdiqlangan "OTMlarda o'quv jarayoniga kredit-modul tizimini joriy etish tartibi to'g'risida Nizom"ning 15- va 30-bandlariga asosan Matn tahriri fanidan 2-semestirda 60 soat o'quv yuklamasini o'zlashtirgan, fan dasturi (silabus)da belgilangan baholash tartibiga ko'ra <u>ijobiy baholani</u> kasbiy kompetensiyalarni yetarli darajada egallagan talabaga 2-semestirda 5 kredit beriladi.</p> <p>Talaba belgilangan ta'lim olish natijalariga erisha olmagan taqdirda kreditlar berilmaydi.</p> <p>Talabalarining bilimini baholash O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirining 2018-yil 9-avgustdagi 19-2018-son buyrug'i bilan tasdiqlangan "Oliy ta'lim muassasalarida talabalar bilimni nazorat qilish va</p>	



<p>baholash tizimi to'g'risida"gi Nizom talablari asosida belgilanadi.</p> <p><b>Talabalarning bilimini baholash mezonlari:</b></p> <p><b>5 (a'lo) baho</b> – talaba mustaqil xulosa va qaror qabul qiladi, ijodiy fikrlay oladi, mustaqil mushohada yuritadi, olgan bilimni amalda qo'llay oladi, fanning mohiyatini tushunadi, biladi, ifodalay oladi, aytib beradi hamda fan bo'yicha tasavvurga ega deb topilganda;</p> <p><b>4 (yaxshi) baho</b> – talaba mustaqil mushohada yuritadi, olgan bilimni amalda qo'llay oladi, fanning mohiyatini tushunadi, biladi, ifodalay oladi, aytib beradi hamda fan bo'yicha tasavvurga ega deb topilganda;</p> <p><b>3 (qoniqarli) baho</b> – talaba olgan bilimni amalda qo'llay oladi, fanning mohiyatini tushunadi, biladi, ifodalay oladi, aytib beradi hamda fan bo'yicha tasavvurga ega deb topilganda;</p> <p><b>2 (qoniqarsiz) baho</b> – talaba fan dasturini o'zlashtirmagan, fanning mohiyatini tushunmaydi hamda fan bo'yicha tasavvurga ega emas deb topilganda.</p>	<p><b>6. Asosiy adabiyotlar</b></p> <ol style="list-style-type: none"> <li>1. Жамолхонов Х., Сапаев К. Имло муаммолари. Иккинчи нагр. – Т.: Низомий номдаги ДДУУ, 2011.</li> <li>2. Тоҳиров З. Адабий таҳрир. Ҳува қўлланма. – Тошкент, 2012.</li> </ol> <p><b>Qo'shimcha adabiyotlar</b></p> <ol style="list-style-type: none"> <li>1. Aminov M. va boshqalar. "Davlat tilida ish yuritish". – Toshkent: O'zbekiston nashriyoti, 2020.</li> <li>2. Шомақудов А. ва бошқ. Ўзбек тили стилистикаси. Ҳува қўлланма. – Тошкент: Ҳақуғуви, 1983. – 248 б.</li> <li>3. Saidov O'. Yangiliklar yozish va tahrir san'ati. Ma'ruzalar matni. – T.: Ma'rifat-Madadkor, 2002.</li> <li>4. Toshaliyev I. Sarlavha stilistikasi. Jurnalistika fakultetlari uchun ixtisos kursidan o'quv qo'llanma. – T.: Universitet, 1995.</li> <li>5. Toshaliyev I. Adabiy tahrirning mantiqiy asoslari. O'quv qo'llanma. – Toshkent, "Universitet", 1999.</li> <li>6. Chernikova Yelena. Literaturnaya rabota jurnalista. Uchebnik. – M.: Gardariki, 2007.</li> <li>7. Meliboyev A. Qirq beshinchi bekat. – Toshkent: Alisher Navoiy nomli Milliy kutubxona nashriyoti, 2008.</li> <li>8. Egamberdiyeva F., Egamberdiyeva Sh. Sarlavhalar tahlili va tahriri. Uslubiy qo'llanma. – Toshkent, 2017.</li> <li>9. Qosimova N. va boshqalar. "Bosma ommaviy axborot vositalari tahririylari uchun qo'llanma". – Toshkent, 2008- yil.</li> <li>10. Normatov U. "O'tgan kunlar" hayrati. – Toshkent, "O'qituvchi" nashriyoti, 1988-yil.</li> <li>11. O'zbek tilining imlo lug'ati. – Toshkent: Fan, 1976.</li> <li>12. O'zbek tilining kirill va lotin alifbolaridagi imlo lug'ati. – Toshkent:</li> </ol>
---	---

<p>Sharq, 1999.</p> <p><b>Axborot manbalari</b></p> <ol style="list-style-type: none"> <li>1. medulka.ru/fiziologiy</li> <li>2. http://meduniver.com/Medical/Book/44.html</li> <li>3. www.ziyounet.</li> <li>4. www.pedagog.uz.</li> <li>5. http://www.literature.uz</li> <li>6. http://en.wikipedia.org</li> </ol>	<p>7. Fan dasturi Universitet Kengashning 2023-yil ___-avgustdagi ___-sonli bayonnomasi bilan ma'qullangan.</p> <p><b>Fan/modul uchun mas'ul:</b> I.X.Islomov – ToshDO'TAU Amaliy filologiya kafedrasida dotsenti, filologiya fanlari doktori (DSc)</p> <p>8. <b>Taqrizchilar:</b> 1. D.Elova – ToshDO'TAU "Amaliy filologiya" kafedrasida dotsenti v.b., f.f.d., PhD. 2. M.Umurzoqova – ToshDO'TAU dotsenti, f.f.d., PhD.</p>
---	--